

MAKTABDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINI JORIY ETISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. Hamkorlikda o'qitish pedagogikasi pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiya ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta'lim sifati va samardorligini oshirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarning asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalarni bajarish, masalalar yechishni o'z ichiga oladi. Maqolada aynan hamkorlik pedagogikasining rivojlanish tarixi, uning o'qitish jarayonidagi o'rni haqida va o'tkazilgan tajriba asosidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: hamkorlikda o'qitish, hamkorlik pedagogikasi, o'quvchi, o'qituvchi, tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, mustaqil fikr, do'stona munosabat.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВНЕДРЕНИЯ ПЕДАГОГИКИ СОТРУДНИЧЕСТВА В ШКОЛЕ

Аннотация. Педагогика совместного обучения основана на совершенствовании педагогического процесса и ориентации его на личность учащегося. Данная технология служит для создания творческой среды, направленной на формирование творческой личности, повышение качества и эффективности обучения. Совместное обучение включает в себя основные процессы обучения: совместный обмен идеями, беседа, анализ, обсуждение, переговоры, выполнение практических задач, решение вопросов. В статье рассказывается именно об истории развития педагогики сотрудничества, о ее роли в процессе обучения, а также о мыслях, основанных на полученном опыте.

Ключевые слова: совместное обучение, совместная педагогика, ученик, учитель, критическое мышление, интерактивные методы, независимое мышление, дружелюбие.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE INTRODUCTION OF COOPERATION PEDAGOGY AT THE SCHOOL

Annotation. Collaborative teaching pedagogy is based on improving the pedagogical process and directing it to the personality of the student. This technology serves to create a creative environment focused on the formation of a creative personality, to increase the quality and effectiveness of Education. Collaborative training includes the main processes of training: collaborative exchange of ideas, conversation, analysis, discussion, negotiation, implementation of practical tasks, solving issues. The article describes exactly the history of the development of collaborative pedagogy, its role in the teaching process, and the thoughts on the basis of the experience carried out.

Keywords: collaborative teaching, collaborative pedagogy, student, teacher, critical thinking, interactive methods, independent thought, friendly attitude.

O'zbekistonda maktab ta'limi tizimi zamonaviy dunyoning talablariga moslashish va o'quvchilarni raqobatbardosh qilish uchun doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini shakllantirish bilan bir qatorda, ularning mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ta'minlash pedagogikasi muhim rol o'ynaydi. Hamkorlik pedagogikasi o'quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan bo'lib, ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv

va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada O'zbekiston maktablarida hamkorlik pedagogikasidan foydalanish mexanizmlari va uning samaradorligi tahlil qilinadi.

Hamkorlikda o'qitish pedagogika fanida uzoq yillardan buyon samarali tarzda qo'llanib kelinmoqda. Uning asosiy G'oyasi faqatgina birgalikda topshiriq bajarish emas, balki bilim olish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning faol hamkorligiga asoslangan o'qishdir. Bu jarayonda pedagog va o'quvchilar o'zaro chuqur tushuncha va qalban yaqinlik asosida faoliyat olib boradilar, o'zaro muloqot va natijalarni birgalikda tahlil qilish orqali rivojlanadilar.

Hamkorlik pedagogikasining ilmiy asoslari XX asrning 70-yillarida J. Dyui tomonidan ishlab chiqilgan. Dyui hamkorlikda o'qitishda natijalarni oldindan ko'ra bilish va amaliy faoliyatni tashkil etish G'oyasini ilgari surgan. Bugungi kunda ushbu yondashuv Germaniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda.

Hamkorlik pedagogikasining asoschilari hisoblangan novator-pedagoglar (Sh.A. Amonashvili, S.N. Lisenko, I.P. Volkov, V.F. Shatalov, Y.N. Ilin va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'zaro munosabatlarni shakllantirishni alohida ta'kidlaydilar. A.Avloniy, G'.G'ulom, K.D. Ushinskiy, A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy, J.J. Russo, Ya. Korchak, K. Rodjers kabi pedagoglar ham hamkorlik pedagogikasining konseptual qoidalarini ishlab chiqqan.

Bugungi kunda hamkorlik pedagogikasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosini tashkil etadi va "XXI asr ta'limi konsepsiyasi"da o'z aksini topgan. Bu yondashuvda bolaga insonparvarlik asosida shaxsiy yondashuv asosiy o'rinni egallaydi. Ta'lim jarayonida bola shaxs sifatida to'la huquqli sub'ekt sifatida qaraladi va uning rivojlanmagan qobiliyatlarini aniqlab, rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

Maktab ta'limini hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etishda quyidagi mexanizmlar muhim ahamiyatga ega: ta'lim maqsadlariga yangicha qarash. Har bir o'quvchi o'z fikrini erkin ifodalovchi, mustaqil va barkamol shaxs sifatida tarbiyalanadi. Shaxsning rivojlanishi ta'lim tizimining asosiy maqsadi sifatida belgilanadi, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. O'qituvchi bolaga nisbatan muhabbat va hurmat bilan yondashadi, ularning kuch va iqtidoriga ishonadi, xatolar qilish huquqini tan oladi va pedagogik jarayonda o'zaro tenglik tamoyiliga amal qiladi, individual yondashuv. Har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib, o'quv materiallari bolaga moslashtiriladi. O'qituvchi shaxsning ijobiy sifatlarini ko'ra biladi va psixologik-pedagogik diagnostika asosida rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilaydi, ijobiy "Men-konsepsiyasi"ni shakllantirish. O'quvchilarda o'ziga ishonch, muvaffaqiyatga intilish, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu esa o'quvchilarning o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlariga zamin yaratadi, ta'lim mazmunini shaxs rivojlanishining vositasi sifatida tushunish. "Nimaga?" va "Qanday ta'lim?" savollariga javob berishda shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi ta'lim mazmuni shakllantiriladi.

Zamonaviy maktabda hamkorlik pedagogikasi asosida tarbiyalash konsepsiyasi ham shakllanmoqda. Bu yondashuv bilimlar maktabini tarbiya maktabiga aylantirish, o'quvchini tarbiya tizimining markaziga qo'yish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni shakllantirish, o'quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish hamda individual va jamoaviy tarbiyani uyG'unlashtirishga qaratilgan.

Hamkorlik pedagogikasi - bu o'quvchilarni jamoaviy ishlashga, o'zaro fikr almashishga va mushtarak maqsadlarga erishish uchun birgalikda harakat qilishga o'rgatadigan ta'lim metodikasi. Ushbu yondashuv individual ta'limdan farqli o'laroq, o'quvchilarning o'zaro hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslanadi. Hamkorlik pedagogikasining asosiy mazmuni quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi: O'zaro bog'liqlik: Hamkorlik pedagogikasida o'quvchilar bir-birlariga bog'liq bo'lib, bir-birlarining muvaffaqiyatiga hissa qo'shadilar. Ular birgalikda maqsadlarga erishish uchun birlashishadi va bir-birlarining kuchli tomonlaridan foydalanadilar. O'zaro javobgarlik: Hamkorlik pedagogikasida o'quvchilar bir-birlariga javobgar

bo'lib, bir-birlarining o'rganish jarayoniga hissa qo'shadilar. Ular bir-birlarining progressini kuzatadilar, bir-birlariga yordam beradilar va bir-birlarining o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlaydilar. O'zaro hurmat: Hamkorlik pedagogikasida o'quvchilar bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishadi va har birining fikriga qadr beradi. Ular bir-birlarining farqlarini qabul qiladilar va bir-birlaridan o'rganishga tayyor bo'ladilar. O'zaro muloqot: Hamkorlik pedagogikasida o'quvchilar bir-birlariga ochiq va samarali muloqot qiladilar. Ular o'z fikrlarini bildiradilar, savol beradilar, muhokama qiladilar va birgalikda qarorlar qabul qiladilar.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy maqsadi – o'quvchilarni faqatgina bilim bilan ta'minlash emas, balki ularga mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini singdirishdir. Ushbu yondashuvda o'qituvchi faqat bilim manbai sifatida emas, balki o'quv jarayonida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, muhokama va hamkorlik muhitini yaratuvchi shaxs sifatida ishtirok etadi.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: interaktiv ta'lim: O'quvchilar o'z bilimlarini o'zaro almashish orqali chuqurlashtiradilar, jamoaviy muammo yechish: O'quvchilar birgalikda muammolarni hal qilish orqali fikrlash qobiliyatlarini oshiradilar, o'zaro yordam: Kuchsizroq o'quvchilar kuchlilar yordamida bilimlarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar. shaxsiy rivojlanish: Har bir o'quvchi o'ziga ishonch hosil qiladi va mustaqil fikrlashga o'rganadi.

Bu yondashuv o'quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini, balki ijtimoiy muloqot va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, hamkorlik pedagogikasi orqali o'quvchilarda muammolarni jamoaviy muhokama qilish, qarorlar qabul qilish va natijalarga javobgarlik his qilish kabi fazilatlar shakllanadi.

O'quv jarayonida hamkorlik metodlaridan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi: O'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalari oshadi, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro ishonch va muloqot yaxshilanadi, o'quvchilarning motivatsiyasi ortadi va dars jarayonlariga qiziqish kuchayadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud: komandada o'qitish (R.Slavin). kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish(R.Slavin, 1986), hamkorlikda o'qitishning "zigzag yoki arra" metodi (E.Aronson, 1978), hamkorlikda o'qitishning "Birgalikda o'qiymiz" metodi (Minnesot universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson,1987), kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi (Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan1988 tomonidan ishlab chiqilgan).

Hamkorlik pedagogikasi O'zbekiston ta'lim tizimi uchun dolzarb va istiqbolli yondashuvlardan biridir. Uning samarali joriy etilishi o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonini yaxshilaydi, balki ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mavjud tajribalarni tahlil qilish va rivojlantirish orqali ta'lim sifati yanada oshirilishi mumkin.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday hatti-harakat o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi, o'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosbata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Xolmatov P., Shirinov M. Pedagogika. — Toshkent: "Navro'z", 2021. — 400 b.
2. Musurmanova A. Umumiy pedagogika: 1-qism. — Toshkent: "O'zkitobsavdo", 2020. — 256 b.

3. Abdullayeva Sh.A. Umumiy pedagogika (o'quv qo'llanma). — Toshkent: "Renessans", 2023. — 312 b.
4. Xodjayev S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. — 198 b.
5. Berdiyev B. Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari asosida pedagogik texnologiyalarni joriy etish. — Toshkent: "Ilm ziyo", 2023. — 224 b.
6. Otamurodova D., Urinbayeva U. Boshlang'ich ta'lim fanlarida samarali interaktiv metodlardan foydalanish. — Toshkent: "Ilmiy izlanish", 2024. — 205 b.